



SKRIPKA CHOLG'USINING O'RNI VA MUSIQANING INSON RUXIYATIGA TA'SIRI

Akbolayeva Irodahon Mampirjon qizi

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Musiqqa madaniyati"1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqaning inson ruxiyatiga ijobiy ta'siri hamda uni eshitishda psixologik tayyorgarligini manaviy- marifiy maxoratini oshirish va diqqatini bir joyga jamlashga undash va boshqalar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: eshitish,maxorat,ishonch,nazorat,jamlash,xis qilish.

Annotation: In this article, it is written about the positive effect of music on the human psyche, as well as the improvement of psychological readiness, spiritual-educational skills, and encouragement to focus on one place, etc.

Key words: hearing, skill, confidence, control, concentration, feeling.

Аннотация: В данной статье написано о положительном влиянии музыки на психику человека, а также о повышении психологической готовности, духовно-просветительских способностей, побуждении к концентрации внимания на одном месте и т.д.

Ключевые слова: слух, навык, уверенность, контроль, концентрация, чувство.

Kirish. Sport bilan shug'ullanish insonga jismoniy sog'liqni yaxshilashga yordam bersa, musiqa bilan shug'illanish insonga ma'naviyatini rivolantirishiga, eshitish sifatini oshirish hamda bo'sh vaqtini foydali mashg'ulotlarga sarf qilishga yordam beradi.Aynan skripka cholg'usi bilan shug'illangan insonni eshitish qobilyati yaxshi rivojlanadi va qalban xis qilishi oson bo'ladi. Sababi skripka inson ovozi diapazoniga va yurakka yaqin cholg'udir.Skripka cholg'usini ichro xolati ham qalbgga yaqin joylashadi. Ayrim mamalakatalarda farzandlarini qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar skripka cholo'usini bilishi shart deb xisoblagan va farzandlarini yoshligidan skripka cholg'usini o'rganib ijro etishlari uchun sharoitlar yaratib bergan.





Hozirgi kunda skripka cholg'usida ijro etish nafaqat Yevropada balki O'zbekistonda ham keng ommalashib bormoqda. Demak skripka tarixiga nazar tashlasak 15-16 asrlarga borib taqaladi. Skripka cholg'usining rivojlanishi va o'rni nafaqat Yevropada xattoki boshqa mamlakatlarda ham ancha yuqoridir. Hozirgi kunda skripka cholg'usini ijro etishda malakali pedagoglar yordamida bilim va ko'nikmalar berib kelinmoqda. Ammo yuqori natijalarga erishish uchun ijroni o'rgatishni o'zi kamlik qiladi. Skripkada asarni yaxshi ijro etib, uni xis qilib, tomoshabinlar va tinglovchilarga yetkazib berish uchun psixologik tayyorgarlik albatta muhimdir. Asarni ijro etish jarayonida ijrochining ruxiy tayyorgarligi pand bersa imkoniyatlari chegaralanib qoladi va natijada tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'la olmaydi va kompazitor bastalaganidek meyor darajada ijro eta olmaydi. Musiqaning inson sog'ligiga ijobiy ta'siri va foydaliligini buyuk bobokalonimiz Abu Ali Ibn Sino ham o'z tajribalarida isbotlagan. Aynan Musiqa tinglash orqali Uyqsizlik, miyya faoliyatidagi toliqish natijasida kelib chiqadigon kasalliklarga davo musiqa ekanligini takidlab o'tganlar va shunday kasallikka chalingan bemorlarni sokin musiqa orqali davolaganlar.

Muhokama. Skripka ijrochisi o'z asarini maxoratli ijro etishi bilan bir qatorda ichki kechinmalarini va tuyg'ularini ham so'zsiz ifodalab berishini talab etadi. Bularni barchasiga erishish uchun manaviy-marifiy sifatlarini rivojlantirishi va ruxiy imkoniyatlarini takomillashtirishi lozim bo'ladi. Musiqiy eshitishni sifatli rivojlantirish, musiqiy tinglash va eshitishni tarbiyalash jarayonidan so'ng yuzaga chiqadi. Masalan sportchi mashqlarini ko'p marotaba uning bajarilishi, texnik o'zlashtirilishi maqsadida takrorlayversa, shu vaqtning o'zida xam kuch, xam chidamlilik va tezkorlik kabi jismoniy sifatleri tarbiyalanadi.

Skripka cholg'usida esa texnik va lirik intanasion ijro uchun gamma yani qo'l mashqini o'rni juda katta va ahamyatlidir. Faqat buning uchun juda katta sabr toqat talab etiladi. Agar ijrochi sabr bilan ushbu mashqlarni ko'p marotaba takrorlasa, alabatta texnikasi yaxshi rivojlanadi va imkoniyatlari yanada ortib boradi.

Musiqa cholg'u turlarining o'ziga xosligi yoki musiqa ijroning alohida bo'limlar ijrochining ijro jarayonida psixikasiga qo'yilgan talablarga o'z izlarini qoldiradi. Masalan sokin mayus musiqa inson ruxiyatiga o'ychanlik, xotiralarini eslashga undasa, tez musiqa yurakni o'ynatib tez urishga majbur qiladi.

Komil musiqa qalbni shunday larzaga keltiradiki u dunyoda bor bo'lgan so'zsiz eng yorqin baxtni ato etganday bo'ladi.

Stendal aytganidek musiqa insonni yashashga va xarakatlanishga undaydi. Shunga misol qilib bolaligimizda shunday vaqtlar bo'lganki, qo'shiq yoki kuyni eshitganimizda baxtiyor onlarimiz yodimizga tushadi.

Xulosa. Musiqa kuchli assotsiativ omildir, chunki bir marotaba eshitgandayoq uni butun umrga eslab qolish mumkin va uni kelgusi bor eshitganimizda taxminan qanday davom etishini bilamiz. Bunday kuchli ta'sirni hatto suratdan ham ololmaymiz, birorta surat bilan to'qnash kelganimizda, kelgusi safar u bilan yuzma-yuz kelganda, katta gumon borki u bizga boshqacha ko'rinadi.

Shuningdek musiqa ijodiy shaxslar sog'ligi va organizmiga ko'proq ta'sir qiladi. Ko'pincha ular musiqadan yo ilxomlanadi yoki g'amgin xolatga tushadilar. Xozirgi kunda xar-bir inson o'z xayot tarziga ega bo'lishni xoxlaydi. Bu xayot tarzi kiyimda yoki



aksesuarlarda emas, fikrlash va tasavvur qilishda aks etadi. Xar-bir inson qalban chiroyli narsalarni atrof muxit go'zalligini va o'ziga sharoitni yaratishni astoydil xoxlaydi va bu niyyatlarimiz bizga maqbul musiqa sababli jumbushga keladi. Dunyoda insonlarning yarmidan ko'pi yaxshi musiqa uchun pul to'laydilar. Lekin juda kam ijodkorlar yaratadi va misli ko'rinmas mashxurlikka erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
2. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.
3. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.
4. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
5. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
6. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
7. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.
8. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).
9. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
10. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзнинг ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 25-28.